

# O'zbekiston – Turkiya : tarixchi olimlar uchun yozgi o'qishlar boshlandi

Avval xabar berganimizdek, O'zR FA Tarix instituti xodimlarining Turkiyada yozgi o'qishlari boshlandi.

16-iyun kuni Najmiddin Erbaqon universitetida yozgi o'qishlarning ochilishi, turkiyalik olimlarning ilmiy chiqishlari o'tkazildi.



Ilmiy seminarni Universitet Tarix fakulteti dekani professor Kamol O'zjan olib bordi. Har ikki davlat tarixchi olimlari uchun tashkil qilingan ilmiy seminarning qanchalik muhimligi va kelajakda buning ko'lamini kengaytirish kerakligi haqida o'z fikrlarini bildirib o'tdi. Universitet rahbari professor Zakiryan janoblari tabrik so'zida hamkorlikni yanada mustahkamlash va rivojlantirish uchun Universitet har doim hamkorlikka tayyorligini, ilmiy muloqotlar almashinuvini muntazam yo'lga qo'yish uchun barcha sharoitlar yetarliligi, oxirgi 5-6 yil davomida davlatlararo munosabatlarning yanada mustahkamlanib borayotganligi, Turkiya jumhuriyati rahbari Rajab Toyib Erdog'on janoblarning mamlakatimizga rasmiy tashrifi vaqtida Xiva shahriga qilgan tashrifi vaqtida tarix bir bu elning mushtarak yo'llari, o'zaro hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqish lozimligi haqida aytgan fikrlarini ta'kidlab o'tdi.

O'zR FA Tarix instituti direktori professor Azamat Ziyov tabrik so'zida, tili va dini bir bu ellarni tarixan manzillari birligi, mushtarakligi haqida aytib, 140 yil oldin Turkiston xalqini bir-biridan ajratish holatlari bo'lganligi, ayniqsa, 1924-yilda etnik jihatdan bir-biridan ajratib boshqarilganligi haqida aytib o'tdi. Turkiya jumhuriyati O'zbekiston Respublikasi mustaqilligini ilk tan olgan davlat sifatida, ayniqsa, 2016-yildan so'ng Yangi O'zbekiston rahbarining o'zaro aloqa va hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqqanligi, va O'zR FA Tarix instituti olimlarining bugungi ilmiy hamkorlik uchun tashrifi bunga yaqqol misol bo'la olishini aytib o'tdi.

Hozirgi vaqtda hukumatlarora munosabatlar, olimlar orasidagi aloqalar na'munasi o'laroq Tarix institutining 10 dan ortiq yosh olimlarini ilmiy hamkorlikda kelajak poydevori bo'lishligini, kelgusida bu

yoʻzgi oʻqishlarni barcha turkiy davlatlar yosh tarixchi olimlari oʻrtasida oʻtkazib borilishida tenglik va samimiylik bilan ilmiy hamkorlikka doimo tayyorligi haqida gapirdi. Shundan soʻng, Tarix institutida oxirgi ikki yilda nashr qilingan barcha ilmiy kitob va jurnallar va esdalik sovgʻalari Universitetga topshirildi.



Ilk ilmiy maʼruza Saljuq universiteti professori Mustafo Demirchi tomonidan boʻlib oʻtdi. Avvalo soʻzining boshida, “Oʻzbekiston - onaduliyaliklar uchun ikkinchi qibladir” deb, Oʻzbekiston barcha turkiy xalqlarning siyosiy, maʼnaviy jihatdan tarixan markazi boʻlganligi, va Yangi Oʻzbekistonda uchunchi uygʻonish davrining ilk poydevori qoʻyilayotganligi haqida ishonchli fikrlar bildirib oʻtdi.

Keyingi maʼruzachi Najmiddin Erbaqon universiteti professori Fotih Mehmit Berk janoblari “Onaduliya madaniyat tarixi” xususida boʻlib, bir qancha ilmiy qarashlarini bayon etdi. Umuman olganda bugungi maʼruzalar bir-biridan qiziqarli, foydali boʻldi. 17-iyun kuni OʻzR FA Tarix instituti olimlarining chiqishlari oʻtkaziladi.